

**BILGA XOQON VA TO'NYUQUQ BITIKTOSHLARIDAGI
SO'ZLARNING LEKSIK- MORFOLOGIK TAHLILI**

Mirzaqosimova Marjona Qodirjon qizi

Abdurasulova Muxlisa

Andijon davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy tillarning qadimgi yozma yodgorligi hisoblanmish Bilga xoqon hamda To'nyuquq bitiktoshlarining yaratilishiva uning o'rganilishi haqida so'z yuritilgan. Ulardagi so'zlar leksik-morfologik jihatdan tahlil qilingan hamda ularning hozirgi kundagi lug'aviy ma'nolari o'rganilgan. Ushbu maqolada Bilga Xoqon va To'nyuquq bitiktoshlarida uchraydigan so'zlarning leksik-morfologik tahlili o'tkazilib, ularning qadimgi turkiy tilning rivojlanishida tutgan o'rni va ahamiyati ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: bitiktosh, turk, yodgorlik, qabila, tängri, tuman, Tunyuygu, artuqi, qoraxitoy, enisey.

Abstract: This article discusses the creation and study of the Bilga Khagan and Tunyuquq inscriptions, which are considered ancient written monuments of the Turkic languages. The words in them are analyzed lexico-morphologically, and their current lexical meanings are studied. This article conducts a lexical-morphological analysis of words found in the Bilga Khokan and Tunyuquq inscriptions, and shows their role and significance in the development of the ancient Turkic language.

Keywords: inscription, Turk, monument, tribe, tengri, district, Tunyuygu, Artuqi, Karakhitay, Yenisei.

Kirish.

Bilga Xoqon va To'nyuquq bitiktoshlari - qadimgi turkiy yozma yodgorliklari bo'lib, ular Turk xalqining tarixi, madaniyati va tili haqida qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bitiktoshlardagi so'zlarning leksik-morfologik tahlili orqali qadimgi turkiy tilning grammatik tuzilishi, leksik tarkibi va fonetik xususiyatlarini o'rganish mumkin.

Bilga xoqon bitiktoshi marmar bitiktosh bo'lib, Eltarish xoqonning o'g'li, Kulteginning og'asi asl ismi Xitoy yilnomalarida "Mo'g'lon" bo'lgan Bilga xoqon sharafiga 735-yilda qo'yilgan. 734-yilda Bilga xoqonni 50 yoshida o'z urug'laridan biri zaharlab o'ldiradi. Bu bitiktosh Kulteginnikidan 1 km janubiy-g'arbga o'rnatilgan bo'lib, ikkovi ham bir vaqtda 1889-yilda rus olimi N.M.Yadrinsev tomonidan Mo'g'ulistonning Kosho Saydam vodiysida Ko'shkin Urxun daryosi bo'yidan topilgan. Bitikning nashri va tarjimalari ham aynan Kulteginniki bilan bir vaqtda amalga oshirilgan. Yodgorlik matni nemis, fransuz, ingliz, rus tillariga tarjima qilinib, turk va o'zbek tillarida tavsif etilgan. Faqat S.E. Malov alohida lekin boshqa bitiklar bilan birga nashr qilgan. Bilga xoqonbitiktoshining shakli ham Kulteginniki singari bo'lib, hajmi undan farq qiladi. Bitigning yozilgan va maqbaraning tiklangan sanasi aniq emas. Ba'zi olimlar u 712 – 716 yillar orasida yozilgan, ayrimlar – 720, boshqa birlari 725 – 726 yillari bitilgan, deya taxmin qiladilar. Hatto ushbu yozuv Kul tigin bitigiga javob tariqasida bitilgan, degan qarashlar ham bor. Nima bo'lganda ham, uning tarixi Bilga xoqon zamoniga boradi. Bu to'g'rida bitigning yakunida: "(Ushbu bitigni) turk Bilga xoqon elida yozdirdim men bilga To'nyuquq", deya qayd etilgan. Muhimi shundaki, tarix bayoni oddiy emas: muallif ko'rgan-kechirganlarini, o'zi qatnashgan buyuk ishlarni ta'rif etmoqlik uchun xalq maqollari, turli badiiy vositalardan unumli foydalangan. Uslub balog'at darajasida, nihoyatda go'zal. Bu belgilari matnning badiiyligini ta'minlaydi. Bunday uslubning tanlanishiga sabab, asarni o'qishli qilish, uning badiiy-estetik ta'sirini oshirish edi. Shuning uchun bitigni tarixiy-badiiy asar sifatida o'rganish o'rinlidir.

To'nyuquq taxminan 645-726-yillar orasida yashagan Turk xoqonligining davlat arbobi va sarkarda bo'lgan. Ashida qabilasiga mansub. Turk zodagonlarining Xitoy imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan o'g'illaridan biridir. Uning ismi xitoy yilnomalarida Tunyuygu va Yuanchjen shakllarida uchraydi. U Tabg'achda tug'ilib, voyaga yetgan. Imperator saroyida ishonch qozonib, ma'muriy xizmatga yuborilgan. To'nyuquq 680-yillarda Turk xoqonligini Xitoy asoratidan qutqarib, uni yangitdan barpo qilishda Eltarish xoqonning eng yaqin maslahatchisi bo'lgan. U 3 xoqon: Qutlut Eltarish (680—691), Qapog'on (691—716) va Bilga xoqon (716—734) hukmronliklari davrida bosh vazir va lashkarboshi bo'lgan. Umrining katta qismini xoqonlikni mustahkamlash, turli qabilalar ahilligini saqlash, tashqi dushmanlarga qarshi kurash bilan o'tkazgan.¹

Bilga Xoqon va To'nyuquq bitiktoshlarida uchraydigan so'zlarning leksik tahlili bir qancha jihatlarni o'z ichiga oladi. Misol uchun, Bitiktoshlarda uchraydigan so'zlarning asosiy qismi qadimgi turkiy tilning asosiy leksik fondini tashkil etuvchi so'zlardir. Masalan, "tengri", "el", "yurt", "xoqan", "qan", "tör" kabi so'zlar qadimgi turkiy jamiyatining asosiy tushunchalarini aks ettiradi.

Bitiktoshlardagi so'zlarning leksik ma'nosi zamonaviy turkiy tildagi ma'no bilan bir xil yoki o'xshash bo'lishi mumkin. Masalan, "tengri" so'zi "xudo", "el" so'zi "xalq", "yurt" so'zi "vatan" ma'nolarini bildiradi. Bitiktoshlardagi ba'zi so'zlarning ma'nosi zamonaviy turkiy tildagi ma'no bilan farq qilishi mumkin. Masalan, "qan" so'zi qadimgi turkiy tilda "qonun", "tör" so'zi "qonun" ma'nolarini bildirgan, ammo zamonaviy turkiy tilda "qon" va "to'r" ma'nolarini bildiradi. Bitiktoshlardagi so'zlarni ma'nosiga ko'ra guruhlash mumkin. Masalan, "tengri", "tör" so'zlari diniy tushunchalarni, "el", "yurt" so'zlari jamiyat va vatan tushunchalarini aks ettiradi.

¹ Abdurahmonov, Rustamov — "Qadimgi turkiy til". Toshkent "O'qituvchi" 1982

Bilga Xoqon va To'nyuquq bitiktoshlarida uchraydigan so'zlar bugungi davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Bitiktoshlardagi so'zlarning Morfologik jihatidan tahlil qiladigan bo'lsak, zamonaviy turkiy tildagi so'zlarning tuzilishiga o'xshashdir. So'zlar ildiz, qo'shimcha va yakunlardan tashkil topgan jihatlarni o'z ichiga oladi. Bitiktoshlardagi so'zlarga qo'shiladigan qo'shimchalar zamonaviy turkiy tildagi qo'shimchalarga o'xshashdir. Bilga xoqon bitiktoshidagi fe'lga oid so'zlarni tahlil davomida qadimgi turkiy tilda ham so'zlar o'z ma'nosida va ko'chma ma'noda qo'llanganligini bilib oldik. Ucha bardiso'zi o'z ma'nosida uchib ketishni bildirsa, ko'chma ma'noda vafot etganlikni, insonlar orasida mavjud emaslikni bildiradi. Tik so'zi ham tikmoq hamdao'rnatmoq ma'nolarini anglatadi. Masalan, "-lar", "-da", "-ni", "-dan" kabi qo'shimchalar. Bitiktoshlardagi so'zlar grammatik kategoriyalarni, masalan, son, zamon, shaxs, holat kabi kategoriyalarni ifodalaydi. Bitiktoshlardagi ba'zi so'zlarning morfologik tuzilishi zamonaviy turkiy tildagi tuzilishdan farq qilishi mumkin. Masalan, "qan" so'zi qadimgi turkiy tilda "qan" shaklida ishlatilgan, ammo zamonaviy turkiy tilda "qon" shaklida ishlatiladi.² Bitiktoshlardagi So'zlarning Til Tarixida Tutgan O'rniga nazar tashlasak, Bilga Xoqon va To'nyuquq bitiktoshlarida uchraydigan so'zlarning leksik-morfologik tahlili qadimgi turkiy tilning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bitiktoshlardagi so'zlar qadimgi turkiy tilning grammatik tuzilishini, leksik tarkibini va fonetik xususiyatlarini o'rganishga imkon beradi. O'rxun-Enasoy obidalarida lug'aviy qatlamida tana a'zolarini bildiruvchi bir nechta so'zlar uchraydi. Tana a'zolarini ifodalovchi so'zlarning leksik-semantik mazmundagi ma'nolari yillar o'tsa hamki hech qanday o'zgarishlarga uchramaganligi ko'rinadi. Masalan, adaq-oyoq, ko'zko'z, bas-bosh, tize-tizza, arqa-orqa, ich-ichak, qan-qon, qash-qosh, bog'az-bo'g'iz, ter-ter, til-til singari so'zlarda ham ko'rinib turganidek, ayrim fonetik o'zgarishlarga mavjud xolos. Ma'naviy jihatdan deyarli farqlar mavjud emas.

² N. Rahmonov – "O'zbek tili tarixi". O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent –2009

Yodgorlik matni nemis, fransuz, ingliz, rus tillariga tarjima qilinib, turk va o'zbek tillarida tavsif etilgan. Bilga xoqondagi otlarni tahlil qilar ekanmiz biz uchun tushunarsiz so'zlar deyarli kam. Yodgorlikda keltirilgan tängri so'zi ikki xil ma'noda qo'llangan. Ya'ni yaratgan Alloh hamda falak;Yay bolsar, uzä tängri –yoz bo'lsa, yuqorida falak;Tängriteg tängri yaratmish Turuk Bilga qag'an sabim -Tangriday tangri yaratmish turk Bilga xoqon so'zim.Bitiktoshda otlardan tashqari sifat, son, fe'l so'z turkumi bilan ifodalangan so'zlar ham mavjud. Yodgorlikda toquz, sekiz, to'rt, bes, alti. yeti kabi sonlarni uchratishimiz mumkin. Tartib ko'rsatgichi -nc bo'lgan, biroq birinc o'rnida ilki, bastinqi so'zlari, ikkinc o'rnida esa ikinti, ikindi so'zlari qo'llanganligi bizga ma'lumdir va bitiktoshda •ilki – birinchi(30)•ikin -ikkinchi (30)•ucunc –uchinchi (30)kabi tartib sonlarni uchratamiz³

Bitiktosh ag'darilib uch bo'lak bo'lgan va Kultegin bitiktoshiga nisbatan ko'proq nurab, bitigi ham ko'proq zararlangan. Bitik umumiy 80 satrdan iborat bo'lib:

41 satr - toshning yuz tomoniga;

30 satr - ikki yon tomonga (15 satrdan);

7 satr - orqa, xitoycha yozuv bor tomoniga;

2 satr - toshning taroshlangan ikki qirrasiga bitilgan. Qolgan ikki qirrasidagi bitik o'chib ketgan, ammo bitiktoshning o'ng yoniga yozilgan. Bilga xoqon bitiktoshidagi so'zlarni tahlil qilar ekanmiz unda biz uchun ma'nosi aniq va noaniq so'zlar bisyordir. Masalan: qag'an so'zi xoqon, bilga - dono ma'nolarini beradi va Bilga xoqon bu dono xoqon demakdir

Xulosa.

Bilga Xoqon va To'nyuquq bitiktoshlari qadimgi turkiy tilning boyligi va xilma-xilligini aks ettiruvchi muhim yodgorliklardir. Bitiktoshlardagi so'zlarning leksik-morfologik tahlili qadimgi turkiy tilning rivojlanishini o'rganish, turkiy tillar oilasining genetik aloqalarini aniqlash va turkiy madaniyatining tarixini

³ Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov –“O'zbek tilining tarixiy grammatikasi”. Toshkent –2008

chuqurlashtirishga imkon beradi. **Bitiglarga, umuman, yozma adabiyotga vatan, ona-yurt erkinligi, uni yovdan saqlash, xalini, uning tinchligi yo'lida kurash g'oyasining kiritiluvi adabiyotimiz tarixidagi katta voqeadir.**

Bitigga tikilib turib xayol olis o'tmishga parvoz qiladi. Bir zamonlar bu yer xoqonlikning gavjum maskanlaridan edi. Unga uzun yo'lakdan kirib kelingan.⁴ Yo'lakning bir yonida haykal va balballar. Yo'lakdan o'tib tabg'ach xoqonning bedizchisi(arxitektori) bor iste'dodini ishlatib qurgan ulkan maqbaraga kiriladi. To'rda qabr va unga tiklangan ikki bitigtosh. Olis yurtlardan ot-ulovda yo'l bosib kelgan ziyoratchilar mangutoshlarga o'yib bitilgan bitigni qunt bilan o'qib, undan saboq olgan; milliy qahramoniga, ulug' donishmandga hurmatini bildirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, Rustamov –“Qadimgi turkiy til”. Toshkent “O'qituvchi” 1982
2. N. Rahmonov –“O'zbek tili tarixi”. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent –2009
3. Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov –“O'zbek tilining tarixiy grammatikasi”. Toshkent –2008
4. Qosimjon Sodiqov, professor *Toshkent – Ulan-bator, 2010 yilning yoz chillasi*. “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 2012 yil, 2-son

⁴ Qosimjon Sodiqov, professor *Toshkent – Ulan-bator, 2010 yilning yoz chillasi*. “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 2012 yil, 2-son